



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJTIMOYIY DAVLATDIR

A. Mutalov

"Al Fraganus" Universiteti professori, TDIU Faxriy professori

| ARTICLE INFORMATION                                                                                                                                             | ABSTRACT                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Volume: 1</b><br><b>Issue: 10</b><br><b>DOI: <a href="https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss10/a15">https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss10/a15</a></b> | <p>Ushbu maqolada O'zbekiston ijtimoiy mamlakat deb Konstitutsiyamizda e'tirof etilganligidan kelib chiqib, bir qator misollar yordamida bu fikrni asoslab berilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy tamoyillarga rioya qilish uchun paydo bo'lgan qiyinchiliklar va ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan.</p> |
| <b>KEYWORDS</b>                                                                                                                                                 | <p>konstitutsiya, ijtimoiy davlat, soliqlar, yalpi ichki mahsulot, mehnat resurslari, ish joylari, valyuta kursi.</p>                                                                                                                                                                                                                 |

### Kirish

Hozirgi amalda bo'lgan Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy mamlakat deb e'tirof etilgan. Shuni ta'kidlash zarurki, hurmatli Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev, iqtisodiotni transformatsiyalash bo'yicha har bir muhim qarorlar qabul qilishdan oldin, bo'lajak qarorning yuqoridagi tamoyil, yani boshqacha qilib aytganda "halqparvarlik" nuqtai nazaridan kelib chiqadilar.

Buni mamlakatimizda nihoyatda og'ir kechgan "pandemiya" davrida xalqni ijtimoiy himoya qilish maqsadida amalga oshirgan choralarini ham tasdiqlab turibti. Dunyo mutaxassislari tan olishicha, pandemiya sharoitida dunyoda hech bir mamlakat rahbari O'zbekiston Prezidentchalik xalqqa bo'lgan g'amho'rlikini ko'rsata olmagan.

### Asosiy qism

Mamlakatimiz iqtisodioti oxirgi yillarda ancha yuqori sur'atlar bilan, ya'ni yalpi ichki mahsulotning o'sishi yiliga 4-5.5 foizni tashkil qilib, rivojlanib kelmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamiz rivojlanishi uchun kuchli potentsialga ega, ya'ni uning yer qariida Mendelev jadvaliga kiritilgan barcha elementlar ko'plab miqdorda bor, mamlakatimiz qulay tabiiy sharoitga, iqtidorli kadrlar va qulay infrastrukturaga ega. Ammo, yuqoridagilarga qaramay, mamlakatimizda inflyatsiya jarayoni saqlanib qolmoqda. Iqtisodiyotning rivojlanish darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkich - kishi boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot miqdori nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda, aholining sotib olish quvvati ham nisbatan past.

Fikrimizcha, bu muammolarga quyidagilar sabab bo'lmoqda:

- mamlakatimiz neft-gaz va elektr ishlab chiqarish korxonalarini qurish, modernizatsiyalash hamda ta'mirlashga yo'naltirilayotgan mablag'lar samaradorligi past darajada;

- dunyoning turli burchaklarida davom etayotgan notinchliklarning iqtisodiyotga salbiy ta'siri;

- O'zbekiston sharoitida aholining va uning faol qismi bo'lgan mehnat resurslari o'sish sur'atlarining ish joylari o'sish sur'atlaridan yuqoriligi, chet mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan yurtimiz fuqarolaridan qat'iy valyutada yuborilayotgan pul mablag'lari tushumining pasayib ketishi;

- ijtimoiy infratuzilmalar (aholining ichimlik suvi, elektr energiyasi bilan ta'minlash, yo'l infratuzilmasini yaxshilash va boshqalar) xarajatlarning to'xtovsiz o'sib borishi;

- tadbirkorlar elektr energiyasi, gaz va neft mahsulotlari narxlarining oshib borishi natijasida, o'z mahsulotlarining narxini oshirishga majburdirlar, buni "tadbirkor" so'zining ta'rifi ham tasdiqlab turibdi.

"Tadbirkor - bu foyda olish maqsadida qonunchilik man etmagan biron - bir faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy yoki juridik shahsdir", ya'ni o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun xarajatlar (mahsulot tannarxi) ning oshib ketishi natijasida tadbirkor foyda o'rniiga zarar ko'rishi mumkin. Shuning uchun u o'z mahsulotini foyda berishi mumkin bo'lgan narxda sotishga majbur bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan va boshqa sabablar mamlakatimiz byudjetining taqchillik darajasi oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Elektr energiyasi va gaz narxining oshishi aholi uxhun bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda, xususan:

- faqat pensiya hisobiga kun ko'ruvchilar bu sharoitda yashash uchun yetarli pul mablag'lariga ega bo'lmay qoladilar;

- elektr va gaz ishlatish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat yurituvchi o'zini-o'zi ish bilan band qilganlar kommunal xarajatlar oshishi natijasida ular qaytadan temir daftarga qaytishiga sabab bo'ladi;

Aholining iste'mol qiladigan gaz va elektr narxining bir qismini byudjet hisobidan qoplab kelgan byudjetimiz, endi dotatsiyani ko'tara olmay qoldi va iste'mol qilingan gaz va elektr xarajatlari aholining o'zi to'liq to'lashiga o'tkazdi. Joriy qilingan tartibga ko'ra, 2024 yilning 1 maydan boshlab:

- 1 kVt soat elektr energiyasi iste'moli oyiga 200 kVt soatgacha - 450 so'm (hozirda 295 so'm), 200 kVt soatdan yuqori har 1 kVt soat uchun - 900 so'm to'lash ko'zda tutilgan;

- tabiiy gaz iste'moli oyiga har 1 kub metr uchun isitish mavsumida 500 kub metrgacha - 650 so'm (hozirda 380 so'm), 500 kub metrdan yuqori har 1 kub metr uchun - 1500 so'm, isitish mavsumidan tashqari davrda 100 kub metrgacha - 650 so'm, undan yuqori va har 1 kub metr uchun - 1500 so'm to'lash ko'zda tutilgan.

Shu yerda shuni ta'kidlash zarurki, ilgari ham mamlakatimizda energiya resurslari narxini oshirish va xarajat normalarini chegaralash harakati bo'lgan edi. Masalan, 2022 yilda tegishli idoralar tomonidan maxsus o'rganish va hisob-kitoblar natijasida ishlab chiqilgan normativ hujjatda 2022 yil 1-yuldan boshlab, norma chegarasida (250 kVt.gacha) bo'lsa, 1 kVt. energiya ishlatgani uchun 325 so'm belgilangan bo'lsa, undan ko'pi uchun 650 sum belgilangan edi, ya'ni hozir gaz ta'minoti bo'yicha ham narxlar oshib, iste'mol normalari esa pasaygan va eng muhimi bu normalar chuqur asoslab berilmagan.

Shu bilan birga, energiya ishlatish normalariga ahamiyat beradigan bo'lsak, hovlilarda yashovchi aholining bir pochta adresida joylashgan va bitta kadastrga ega xonadonlarda 2 kishidan iborat oila ham, shu hovlida joylashgan 3 imoratda alohida yashovchi 2 yoki 3 ta oila yashashi

mumkin, ammo hammalariga 1 ta hisoblagich xizmat qiladi va sarflanadigan elektr energiyasi umumiy hisob-kitob qilinadi. Ma'lumki, 2 kishi yashaydigan yoki 10 va undan ko'p insonlar yashovchi oilalar turlicha miqdorda energiya sarflaydilar, shuning uchun normalarni belgilashda shu pochta adresida yashovchi insonlar sonidan kelib chiqish lozim.

#### **Xulosa**

Shunday qilib:

- shu yil 1 maydan kuchga kiritilgan mamlakatimizda energiya resurslari narxini oshirish va xarajat normalarini chegaralash to'g'risdagi qaror bir qator obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra amalga oshirilgan;

- energoresurslar normalarini belgilashda, albatta xonadonda yashovchilar sonidan kelib chiqish lozim;

- eng asosiysi, aholining daromadlarini oshirish va shu orqali sotib olish quvvatini oshirishning samarali yo'llarini qidirib topish lozim.

Shu sohada, fikrimizcha, ishlovchi jismoniy shahslarning daromadini soliqqa tortishda, shu soliqning soliqqa tortish bazasi miqdorini aniqlashda shu davrda u to'lagan kommunal to'lovlar summasini uning barcha daromadlari miqdoridan chegirib tashlash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Biz kiritgan takliflarni amalga oshirish "kuchli ijtimoiy siyosat" tamoyili talablarining bajarilishiga, hamda aholi roziligiga sabab bo'ladi.

#### **References:**

1. O'zbekiston Respublikasi va Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/>
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (Yangi Tahriri). <https://lex.uz/docs/>
3. Xudoyqulov S. / Soliq nazariyasi. / Darslik. T: Iqtisodiyot. 2019.
4. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. / Soliq va soliqqa tortish. / Darslik. T.: Iqtisodiyot-moliya. 2019.
5. Niyazmetov I.M. / Soliq tizimi. /T:Akademiya. 2018.
6. Mutalov A., Mutalova D. / Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. T.: Iqtisodiyot, 2013 yil...